

1-Mavzu: Qishloq xo'jaligida menejment fanining predmeti, maqsadi, vazifasi va tahlil usullari

Reja:

- 1.1. Qishloq xo'jaligining Respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
- 1.2. Menejment tushunchasi va nazariy asoslari.
- 1.3. Qishloq xo'jaligida menejment fanining mohiyati va mazmuni.
- 1.4. Menejmentning ob'yekti va sub'yekti ularning o'zaro aloqadorligi.
- 1.5. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.

Kalit so'zlar: Menejment, Qishloq xo'jaligida menejment, Menejment ob'yekti va sub'yekti. Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

1. Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.- T.: 2012. - 346 b.
2. Umrzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod - moliya, 2008. - 268 b.
3. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 208 b.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Charles W. L. Hill, Steven L. McShane. Principles of Management. 13th ed. ISBN 978-0-07353012-3. - New York, 2008. -529 p.
2. Richard L.Daft. Management. 12th ed. ISBN 978-1-285-86198-2. -Boston, 2016. - 798 p.
3. Rickky W. Griffin. Fundamentals of Management. 8th ed. ISBN 978-1-285-84904-1. -Texas, 2016. - 547 p.
4. Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A.Duffy. Farm management. - 6th ed. ISBN 9780-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-4478- sonli Farmoni.
 2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. www.press-service.uz. 16.01.2016.
 3. Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.
- Internet saytlari
5. www.samqxi.uz - Samarqand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
 6. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
 7. www.uzreport.com - Axborot agentligi.
 8. www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

1.1. Qishloq xo'jaligining Respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.

Qishloq xo'jaligi asosiy maqsadiga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi, ishlar, xizmatlar bajariladi, ular talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Korxonalar, birlashmalar, tarmoqlar (tuman, viloyat, respublika) miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida hal etish uchun respublikada tub islohotlarni amalga oshirish zarur.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan, markazdan rejali boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida davlat ustuvorligida qishloq xo'jaligida talabga javob beradigan, samarali huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilmoqda: mulkchilikning turli shakllari barpo etilmoqda, natijada erkin mulkiy munosabat vujudga kelmoqda, tadbirkorlikning har xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo'lidan borilmoqda, yer-suv islohotlari amalga oshirilmoqda; tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (yer-suv, kapital, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, investisiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integrasiyasini xalqaro munosabatlar asosida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda, rivojlantirilmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda xalqimiz hamda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish taqazo etiladi. Yuqoridagilarga asoslanib, qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy asosini, takror ishlab chiqarish jarayoni rivojlantirilishini ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish va ularni hayotga joriy etish masalalarini, yo'llarini, boshqaruvini o'rgatish «Qishloq xo'jaligida menejment» fanining ham predmeti, ham maqsadi hisoblanadi. «Qishloq xo'jaligida menejment» fani predmeti (maqsadi)ni hal etish uchun quyidagi asosiy vazifalar yechimining nazariy, uslubiy asoslarini o'rgatish lozim:

- qishloq xo'jaligining bosqichma-bosqich rivojlanishini, uning respublika iqtisodiyotidagi o'rni, ahamiyati hamda o'zgarish qonuniyatlarini aniqlashni;

- tarmoqqa davlat rahbarligini, unda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar mazmuni va mohiyatining holatini, ularni rivojlantirish yo'llarini, masalalarini ko'rsatish;

- qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik turlari, ularning faoliyatiga baho berish va takomillashtirish yo'llari;

- tarmoqning cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, investisiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanish darajasiga iqtisodiy baho berish tartibini o'rganish, ularni takomillashtirish va rivojlantirish yo'llarini asoslab berish;

- qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan doimiy va o'zgaruvchan, o'rtacha xarajatlarni, ularning tarkibi va kamaytirish yo'llarini, etishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, samarali taqsimlanishini hamda pul oqimlarini o'rgatish;

- tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholarning tizimini, tarkibini, mazmunini, daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo'llarini ko'rsatish;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integrasiyalashganligini va boshqa masalalarini o'rganish zarur.

Ularni hal etishda boshqa fanlarga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

« Qishloq xo'jaligida menejment» fani o'zining maqsad va asosiy vazifalarini hal etishda barcha iqtisodiy munosabatlarni dialektik materializm ta'limotlariga asoslanib, emperik holda tadqiq etadi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy voqealarni induktiv hamda deduktiv usullarga asosan o'rganib, iqtisodiy mushohada qilish hamda «analiz», «sintez» usullaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Jumladan, qishloq xo'jaligi menejmenti bilan shug'ullanuvchi boshqaruvchilar iqtisodiy muammolar hal etilishini ta'minlaydigan siyosatning iqtisodiy prinsiplarini, mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda shakllantirib borishlari lozim. Buning uchun dastavval har bir muammoga taalluqli bo'lgan ilmiy, uslubiy, statistik ma'lumotlarni, misollarni to'plab, ularni turli usullar yordamida tahlil qilishlari, shu asosda har bir iqtisodiy prinsipga, mexanizmga ta'sir etuvchi omillarni real xo'jaliklar, tarmoqlar miqyosida aniqlashlari kerak.

Har qanday iqtisodiy prinsip va mexanizmning amal qilishini aniqlashda dastavval nazariy g'oyalarga, so'ngra ularning amal qilishiga asoslaniladi. Bu jarayon muammoni tadqiq etishning deduktiv usuli deb nomlangan. Yuqoridagi masalani tadqiq etishda, o'rganishda dastavval ma'lumotlar, voqeyalar, faktlar

o'rganiladi. Nazariy g'oyalarni yaratish jarayoni esa induktiv tadqiq etish usuli deb nomlangan. Demak, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan har qanday iqtisodiy muammoni avval uning nazariyasidan, ya'ni g'oyasidan amal qilishiga qarab o'rganish yoki bu muammoning amaliyotga joriy etilishidan, ya'ni amaliyotdagi holatiga asoslangan holda g'oya yoki nazariyasini yaratishga qarab tadqiqot olib borish mumkin. Ikkala holatda ham iqtisodiy prinsiplarning, mexanizmlarning, muammolarning yechimi samarali aniqlanishi kerak. Iqtisodchilar o'z g'oyalariga, taxminlariga, ayrim voqyealarga, ma'lumotlarga asoslangan holda yaratgan yoki shakllantirgan g'oyalarni, taxminlarini gipoteza, ya'ni asoslanmagan g'oya, deb atashadi. Ilmiy yoki amaliy gipotezalar induktiv va deduktiv tadqiqot usullari yordamida shakllantirilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan tadqiq qilish, o'rganish usullari qo'llangan holda yaratilgan, shakllantirilgan prinsiplar, mexanizmlardan foydalanib, u yoki bu muammoni hal etishning iqtisodiy siyosati, strategiyasi belgilanadi. Yaratilgan iqtisodiy siyosatni joriy etish mexanizmlari va ularni amalga oshirish usullarini iqtisodchilar mukammal o'rganishlari lozim. Masalan, respublika qishloq xo'jaligida mulkning turli shakllarini barpo etish g'oyasi bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi nazariy g'oyalarga va ularning amaliyotda hal etilishiga asoslangan. Muammoni tarmoqda hal etishda respublika qishloq xo'jaligi amaliyotidagi holatlar, misollar, ma'lumotlar asos qilib olinib, bu jarayon tobora rivojlantirilmoqda va chuqurlashtirilmoqda.

«Qishloq xo'jaligida menejment» fani tarmoqda amalga oshirilayotgan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar majmuasining nazariy asoslarini, yo'nalishlarini, samaradorligini mavjud tadqiqot usullari yordamida o'rgatish orqali talabalarda tarmoq iqtisodiyoti bo'yicha iqtisodiy mushohada qilish, uni rivojlantirishga oid muammolarni qo'yish, hal etish, samaradorligini oshirish, yo'nalishlarini belgilab berish qobiliyatini shakllantirib, bozor iqtisodi talablariga javob bera oladigan agrar-iqtisodchilar tayyorlashga ko'maklashadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura 26-30°Cni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo'lib, bir yilda bir necha marta hosil olish imkonini beradi. O'zbekistonning jami yer maydoni 44,4 mln. gektar bo'lib, shundan 50,8 foizini turli xildagi qishloq xo'jalik korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo'jaliklari foydalanadilar: ularning yig'indisi mamlakat qishloq xo'jaligini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan mamlakat aholisining iste'mol tovarlariga, qayta ishlash sanoatini esa xomashyoga bo'lgan talablarini qondirishdir. Buning uchun:

- aholi birdaniga iste'mol qiladigan sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini barcha talablarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish;

- qayta ishlash sanoati korxonalarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishi lozim.

Hozirgi davrda, bu tarmoqda aholi iste'mol qilayotgan tovarlarning 95 foizidan ko'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iboratdir. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida Respublika qishloq xo'jaligining natijalari haqida shunday ta'kidlangan: "...Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil yetishtirildi - 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqali don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi.

Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxonalar, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport

qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.”¹.

Barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarishda respublika iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslarining 31 foizga yaqini qatnashgan.

Lekin Respublika qishloqlarida jami aholining uchdan ikki qismi yashaydi. Ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar 26 mln. gektarga yaqin qishloq xo'jalik yerlaridan olingan, shundan 3695,7 ming gektari ekinzor.

Mamlakat dehqonchiligi sug'orishga asoslanganligi uchun katta miqdordagi suv resurslarini talab yetadi. Lekin bu talab ichki suv resurslari bilan atigi 40 foizgagina qondirilmoqda. Bunday hol Amudaryo hamda Sirdaryo xavzalaridan katta miqdordagi suv resurslarini jalb etishni talab yetadi. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida 42-46 mlrd m³ suv resurslaridan foydalanilmoqda. Tabiatda yer va suv resurslari cheklangan, ular takror ishlab chiqarilmaydigan resurslar hisoblanadi. Shuning uchun ularning har bir gektaridan, m³ dan tadbirkorlik bilan fan-texnika yutuqlarini joriy etib, yil davomida to'liq va samarali foydalanish lozim.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko'plab qishloq xo'jalik texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yonilg'i, yog'lovchi materiallar va boshqa vositalardan foydalanilmoqda. Masalan, tarmoqda 78,9 mingga yaqin turli xildagi traktorlar, 22,7 mingtadan ko'proq yuk tashish mashinalari, 4,4 mingtaga yaqin g'alla yig'ishtiradigan, bir mingtaga yaqin paxta teradigan kambayinlar, ko'plab boshqa texnikalardan foydalanilgan. Tarmoq miqyosida yerlarning unumdorligini, ekinlarning esa hosildorligini oshirish maqsadida 332,7 ming tonna mineral o'g'itlardan foydalanilgan. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarilishi natijasida O'zbekistonning mavqei oshib bormoqda. Shuning bilan birgalikda O'zbekiston jahon bozoriga nihoyatda sifatli bo'lgan qorako'l terisini, pillasini, sabzavot, poliz va bog'dorchilik mahsulotlarini olib chiqib sotmoqda. Lekin Respublikaning bu boradagi salohiyatidan to'liq foydalanilayotgani yo'q. Uni ijobiy hal etish uchun tarmoqda etishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, jahon bozoriga tayyor mahsulotlarni chiqarish lozim. Bu borada so'ngi yillarda chet el investitsiyalarini jalb etib katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni kelajakda jadal sur'atlar bilan rivojlantirish siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda mamlakat aholisining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi yil sayin ortib bormoqda. respublika aholisining jon boshiga 160 kg.ga yaqin un mahsulotlari, 135 kg paxta xom ashyosi, 127 kg sabzavot mahsulotlari, 34 kg dan ko'proq kartoshka, 38 kg. go'sht, 164 kg sut hamda 72 donaga yaqin tuxum ishlab chiqarilgan. Demak, mamlakatda aholining unga va un mahsulotlariga bo'lgan talabi qondirilgan. Kelajakda uning sifatini yaxshilashga alohida e'tibor berish talab etiladi. Lekin boshqa mahsulotlar bo'yicha xalqimizning medisina me'yorlari bo'yicha talabi to'liq qondirilganicha yo'q. Bunday xol O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirilishini taqozo yetadi. So'ngi o'n yillarda bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakat qishloq xo'jaligida erkin bozor iqtisodi talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatini beradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich qat'iy ishonch bilan amalga oshirilishini ta'minlab beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchillik bilan hayotga joriy etilmoqda. Masalan, yer fuqarolarga umurbod meros qoldirish huquqi bilan bepul berilmoqda, fermer xo'jaliklariga esa 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga foydalanish uchun ijaraga berilmoqda. Qishloqda mulk islohoti natijasida mulkdorlar sinfi barqaror ravishda shakllanib, rivojlanmoqda.

Barcha paxta, g'alladan tashqari boshqa mahsulotlarni etishtirib, ularni sotishda erkinlik berildi. Tadbirkorlarga ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun turli xildagi imtiyozli kreditlar berilgan. Lekin amalga oshirilayotgan tadbirlar o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan barcha turdagi islohotlarni erkinlashtirish, ularni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu kelajakda qishloq xo'jaligining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlab, uning ahamiyatini oshirib, respublika iqtisodiyotining yuksalishini ta'minlaydi.

1.2. Menejment tushunchasi va nazariy asoslari.

Yaxshi darajadagi boshqaruv istalgan tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil sanaladi. Fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari ham bundan mustasno emaslar. Muvaffaqiyatga erishishda fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari boshqaruvchilari avval boshqaruvda ishlagan o'z ota-onalariga

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. www.press-service.uz. 16.01.2016.

nisbatan ko'proq boshqaruv qobiliyatini shakllantirishlari va ko'proq boshqaruv qarori Qabul qilish bo'yicha vaqt sarflashlariga to'g'ri keladi².

Bozor iqtisodiyotida turli mulkchilikka asoslangan minglab korxonalar faoliyatini tasavvurga sig'dirish qiyin emas. Korxonalar faoliyatini u yoki bu darajadagi boshqaruvini tashkil etish, shu korxonalar rahbarining boshqaruv qobiliyatiga bog'liq. Uning qobiliyati esa menejment sohasidagi bilimlarni qanchalik darajada egallanganligi bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan menejment so'zi bizning hayotimizda bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq kirib kelgan so'zlar qatoridan joy oldi.

Menejment inglizcha («management») so'z bo'lib, u o'zbek tilida - boshqarishni idora qilish, tashkil etish, rahbarlik qilish ma'nolarini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida korxonalarni boshqarish shakli hisoblanadi. Menejment inson hayotidagi iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni ishbilarmonlik asosida tashkil etish hamda boshqarishni bildiradi.

Inglizcha «menejment» so'zi, boshqaruv degan ma'noni anglatganda, dastlab asov otlarni tushovlash ma'nosini bildirgan. Keyinchalik bu atama ikki gildirakli aravaga nisbatan qo'llanila boshlangan. Bugungi kunda esa gap odamlarni, jamoalarini boshqarish xususida boryapti. Bu o'rinda odamlar mehnati, xohish irodasidan foydalanib mo'ljaldagi maqsadlarga erishish tushuniladi. Lekin menejmentni faqat odamlarni boshqarish jarayoni deb tushunmaslik kerak. Ingliz tilida «Menejment» so'zining ma'nosi nihoyatda murakkab. Ingliz tilining fundamental Oksford lug'atida bu so'zning quyidagi talqinlarini uchratish mumkin:

1. odamlar bilan muomala qilish usuli, tarzi;
2. xokimiyat va boshqaruv san'ati;
3. ishbilarmonlikning o'ziga xos turi;
4. ma'muriy vazifa.

Shunday qilib, «Menejment» atamasi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- boshqaruv;
- inson organidagi bilimlar sohasi;
- boshqaruvni amalga oshirganlarning ijtimoiy qatlami.

Menejment - bu professional faoliyatning mustaqil ko'rinishi bo'lib, bozor sharoitida firmaning ixtiyoriy xo'jalik faoliyati natijasida moddiy va mehnat resurslardan unumli foydalanib mo'ljallangan maqsadga erishishdir.

Bu maqsadga menejment iqtisodiy mexanizmining prinsiplari va usullari asosida erishiladi.

Menejment deganda, bozor sharoitida bozor iqtisodiyotini boshqarish tushuniladi, ya'ni:

- firmani bozorning talabi va ehtiyojiga, aniq talabgorlarning ehtiyojiga yo'naltirish va shu asosda firmaga mo'ljallanayotgan foydani keltiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkillashtirish;
- optimal natijalarga erishgan holda minimal harajatlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doim intilish;
- xo'jalik faoliyatining mustaqilligi;
- bozor holatini e'tiborga olgan holda maqsad va rejalarni doimiy takomillashtirish;
- bozorda, almashish jarayonida firmaning yoki uning xo'jalik faoliyati mustaqil bo'lgan bo'lim va qismlarning yakuniy natijasi namoyon bo'ladi;
- asoslangan va optimal qarorlarni qabul qilishda ko'p variantli hisob - kitoblarni amalga oshirish uchun hozirgi zamon ma'lumotlar bazasi va kompyuterlardan keng foydalanish.

Boshqarish so'zi keng ma'noda ishlatiladi, masalan: davlatni boshqarish, mashinani boshqarish, biron bir biologik jarayonni boshqarish va hokazo. Menejment so'zi esa asosan firma darajasida bozor sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda ishlatiladi. Menejment har hil mustaqillikga ega bo'lgan ishlovchilarni o'z ichiga birlashtiradi, ya'ni muhandislarni, loyihachilarni, iqtisodchilarni, statistlarni, psixologlarni, buxgalterlarni. Ana shularni hammasining faoliyatini menejer boshqaradi.

² Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A. Duffy. Farm management. - 6th ed. ISBN 978-0-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p. -p 12.

Menejer ishlayotgan firmaning kapitaliga mulkdorlikdan erkin, demak u firmaning aksiyasiga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin.

Menejmentning ta'rifini berganda firmaning xo'jalik faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiyotning ixtiyoriy tarmog'ida, ya'ni sanoat korxonalarida, bankda, transportda va h.k.
- firmaning ixtiyoriy faoliyat doirasida, ya'ni ishlab chiqarishda, ilmiy izlanishda, moliyada, ta'minotda va h.k.

Firma xo'jalik faoliyatining maqsadi ishlab chiqarish jarayonini kerakli bo'lgan hamma resurslar bilan ta'minlash va texnik davrni (siklni) tashkillashtirishdir, bu degani ilmiy izlanishlar natijalarini ishlab chiqarishga tadbik qilish, ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, mahsulotning sifat darajasini ko'tarish, tijorat ishlarini amalga oshirish, tovar harakati amallarini bajarish, har hil hisob-kitoblarni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini moddiy texnik ta'minlash, moliya resurslari bilan ta'minlash va boshqalar. Menejmentning asosiy masalalaridan biri - firmaning maqsadlarini yaqin yoki uzoq kelajakga, ya'ni istiqbolga mo'ljallash. Buning uchun firmaning imkoniyatini baholash va resurslar bilan ta'minlanganligini bilish zarur.

Moddiy va mehnat resurslaridan rasional foydalanish natijasida minimal harajat va maksimal samaradorlik bilan boshqarish jarayonida o'zaro hamkorlik qilayotgan kishilar yoki guruhlar maqsadga erishishi mumkin. Xo'jalik faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, ijtimoiy-psixologik masalalarni yechish uchun menejment o'zining xususiy iqtisodiy mexanizmiga ega. Menejmentning ana shu iqtisodiy mexanizmi 3 qismdan iborat:

- firma ichidagi boshqarish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- xodimlarni boshqarish.

Iqtisodiyotni boshqarish - bu muayyan doirada tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va firmalarni boshqarish tushuniladiki, bunda mehnat jamoasi, personal (xodimlar) va ishchilarni boshqarish o'ziga xos muhimlikni bildiradi. Iqtisodiyotni boshqarishning ana shunday muhim qismi menejment sohasi bilan bog'liq.

Menejment barcha turdagi resurslarni (ya'ni tabiiy, mehnat, moliyaviy va hokazo.) samarali biriktib, foyda olishni bilish, uni ko'paytirish bilan bog'liq soha bo'lganligi tufayli uchta jihat bo'yicha to'g'ri tanlovni va ishchan qaror qabul qilinishini talab etadi

Xarajat - bu mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tovarni sotish va xodimlarga to'lash uchun sarflanadigan mablag'lardir. Uning tarkibiga:

- mahsulot (yoki xizmat) tannarxi,
- ma'muriy xarajatlar,
- ijara va foiz to'lovlari,
- ish haqi,
- soliqlar kiradi.

Naf - bu mahsulot yoki xizmatlarning iste'molchilarga qanchalik darajada ijobiy natija keltirishidir. Haridorni harid qilish aniqligi tovarning naflilik darajasining qanchalik yuqoriligidan kelib chiqadi.

Baho - bu tovar va xizmatlarning pulda ifodalangan qiymatidir. Baho ikkita asosiy vazifani bajaradi:

- resurslar iste'molini cheklash imkonini beradi;
- ishlab chiqarish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

Foydaga ta'sir etuvchi bu uch omilning mohiyatini tushungan boshqaruvchigina tanlovni to'g'ri amalga oshirishi va ishchan qarorni qabul qila olishi mumkin. Menejer xarajatlarni minimallashtirishga, mahsulotning naflilik darajasini belgilash bilan birga uning bahosini to'g'ri belgilashi lozim.

1.3. Qishloq xo'jaligida menejment fanining mohiyati va mazmuni.

Qishloq xo'jaligida mulk shakllarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- xususiy mulk egaligi (dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari mulki);
- jamoa (shirkat) mulki (qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) mulki);
- davlat mulki (davlat xo'jaliklariga, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalariga foydalanishga berilgan davlat mulki);
- aralash mulk (qo'shma korxonalar mulki).

Xususiy mulk egaligi o'z manfaatlari yo'lida biznesni mustaqil tashkil etish imkonini beradi. Uning afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi:

- xususiy mulk egaligiga asoslangan tadbirkorlikni tashkil etish nisbatan oson kechadi, ya'ni ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi yengil;

- xususiy mulk egasi o'z biznesiga o'zi xo'jayin va mustaqil xo'jaligi yuritish hamda qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega;

- xususiy mulk egasi o'z mulkidan oqilona va samarali foydalanadi, uni asrab-avaylaydi.

Ammo shu bilan birga uning nuqsonlari ham mavjud:

- ko'p holatlarda xususiy korxonaning keyinchalik o'z biznesini kengaytirish va ko'proq daromad topish imkoniyatlari moliyaviy jihatdan cheklangan bo'ladi;

- moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalar ko'p holatlarda xususiy tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishga moyil bo'lmaydilar;

- xususiy mulk egasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq barcha vazifalarni (xodimlarni yollash va boshqarish, moddiy ta'minot, mahsulotni sotish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini tashkil etish, mablag'larni jalb etish, buxgalteriya hisobi va hisobot shakllarini yuritish va boshqa.) bir o'zi bajarishiga to'g'ri kelishi uning ko'p vaqtini band etadi;

- xususiy tadbirkorlik sub'yekti cheklanmagan javobgarlikka ega bo'ladi, ya'ni noto'lovlar vujudga kelganda kreditorlar uning shaxsiy mulkiga ham da'vo qo'zg'atishi mumkin.

Xususiy mulkka asoslanib faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar sirasiga dehqon va fermer xo'jaliklari kiradi.

Jamoa mulki (hamkorlik) biznesni tashkil etishning xususiy tadbirkorlikka nisbatan mukammalroq shakli hisoblanadi. Hamkorlikda ikki yoki undan ortiq sheriklar korxonani tashkil etish va uni birgalikda boshqarishga kelishib oladilar. Bunda ular korxonani ta'sis etish jarayonida o'zlarining moliyaviy mablag'larini va ishbilarmonlik qobiliyatlarini ham birlashtiradilar. Shu bilan birga biznesni yuritish bilan bog'liq tadbirkorlik xatarlari hamda foyda yoki zararlarni o'zaro taqsimlaydilar. Korxonaning ustav kapitalida ishtirok etishiga ko'ra, hamkorlar turlicha mavqega ega bo'ladilar. Jamoa (shirkat) mulkiga asoslanib faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar sirasiga qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) kiradi.

Qishloq xo'jaligida davlat mulkidan foydalanib xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi davlat korxonalari ham mavjud. Ular asosan urug' chilik-seleksiya, naslchilik va boshqa tajriba-sinov davlat xo'jaliklari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari shaklida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati bilan jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida shug'ullanish mumkin. O'zbekiston

Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi"ga muvofiq fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda respublikamizning fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Fuqaro (jismoniy shaxs) yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir.

"Fuqarolik Kodyeksi"ning 39-moddasiga muvofiq: "O'z mulkida, xo'jaligi yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob byeradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi". Ammo, yuridik shaxslarning faqatgina foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan turlari, ya'ni tijoratchi tashkilotlar tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligida faoliyat olib borayotgan yakka tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan ko'pchilik qismi jismoniy shaxs maqomida faoliyat olib boradi.

Davlat ro'yxatidan o'tgan dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), davlat xo'jaliklari va boshqa korxonalar yuridik shaxs maqomida faoliyat olib boradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soniga ko'ra ularni kichik tadbirkorlik sub'yektlari va yirik korxonalariga bo'lish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9- apreldagi xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora- tadbirlari to'g'risidagi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi PF-3305-sonli Farmoniga muvofiq 2004-yilning 1-yanvaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda:

- dehqon xo'jaliklari - yakka tadbirkorlik sifatida;

- band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan oshmagan fermer xo'jaliklari - mikrofirmalar sifatida;

- band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 50 kishidan oshmagan fermer xo'jaliklari - kichik korxonalar sifatida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari toifasiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid keng miqyosdagi davlat dasturlari amalga oshirilayotganligi tufayli, dehqon va fermer xo'jaliklari ham kichik tadbirkorlik sub'yektlari sifatida bir qator iqtisodiy va huquqiy imtiyozlarga egadirlar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini boshqarish shakllari va usullarini belgilovchi quyidaga asosiy qoidalarga ahamiyat qaratish lozim:

1. Boshqarishning ilmiyligi. Hozirgi zamon sharoitida boshqarishning ilmiylik qoidasi tobora ko'proq ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu qoidani amalga oshirish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tobora to'laroq bilib borishni va ulardan xo'jalik yuritish amaliyotida borgan sari to'laroq foydalanishni taqozo etadi.

Ilmiy asosda boshqarish qoidasini amalga oshirish quyidagi shartlarning bajarilishini talab qiladi:

a) ishlab chiqarishni boshqarishning ilmiy negizlarini butun choralar bilan rivojlantirish va uning turli muammolarini ishlab chiqaruvchi mahsus ilmiy-tadqiqot institutlarini barpo qilish;

b) ishlab chiqarishni boshqarishning eng yaxshi va ilg'or tajribalarini umumlashtirish va bilish.

2. Siyosiy va xo'jalik rahbarligining birligi. Bu qoida iqtisodiyotga siyosat bilan chambarchas bog'liq holda qarashga asoslanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) umumiy xo'jalik vazifalari bilan iqtisodiy vazifalarni hal etishga siyosiy yondoshuvni;

b) xalq xo'jaligi, mehnat jamoalarini eng maqbul tarzda birga qo'shishni ta'minlash uchun ommani siyosiy tarbiyalash usullaridan foydalanishni;

d) korxonalarini o'zlarining aniq vazifalarini bajarishda umumdavlat maqsadlariga yo'naltirishni.

Agar bu qoida buzilsa, maqsad birligi yo'qoladi va xo'jalikka rahbarlik uslubi samarasiz bo'lib qoladi. Bu esa faqat xo'jaliklar manfaatiga emas, balki davlat manfaatlariga ham zarar keltiradi.

3. Tarmoq va hududlar bo'yicha boshqarishni bog'lab olib borish. Mehnatning tarmoqlararo va hududiy bo'linishi ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllaridan biridir. Har bir korxonalar bir tomondan muayyan tarmoqning tarkibiy qismi bo'lsa, ikkinchi tomondan, biror ishlab chiqarish, hududiy teritorial majmuaning tumaning tarkibiy qismidir. Bu hol xo'jaliklarga rahbarlik qilishda tarmoq va hudud bo'yicha boshqarish qoidasini bog'lab olib borishni va tarmok boshqaruvi bilan hududiy boshqaruv o'rtasida umumiy boshqaruv vazifalarini to'g'ri taqsimlashni talab qiladi.

4. Boshqaruvni demokratizatsiya qoidasi. Respublikamiz qishloq xo'jaligi yuzlarcha, minglarcha kishilarning maslahatlashib va o'zaro fikr almashib qilinadigan ishlarini yo'lga solib turadigan bir majmuadan iborat bo'lmog'i lozim. Shu bilan birga boshqarishni demokratlashtirish mehnatkashlarni ishlab chiqarish boshqarishga keng ko'lamda jalb qilish uchun yetarli imkoniyat yaratib beradi.

Boshqaruv faoliyatida mehnatkashlarning bevosita qatnashishi partiya va kasaba uyushma tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Bunday tashkilot vakillari boshqaruv ishining ko'pgina bosqichlarida qatnashadilar va tarmoq taraqqiyotida o'z ulushlarini qo'shadilar.

5. Rejalilik. Bu rejalashtirish vazifasining muhimligini va uni boshqarishning markaziy bo'g'iniga aylanishini belgilaydi.

6. Boshqaruvning yakka hokimlik qoidasi. Bunda xo'jaliklar boshqaruvi yuqori organlar tomonidan tayinlangan ishonchli shaxs orqali bajariladi. Bu shaxsga korxonaning mol-mulki, pul vositalari, a'zolar manfaati uchun ishchi mehnat xodimlari ishonib topshiriladi. Yakka hokimlik ishlab chiqarishni boshqarilishida jiddiy tartib va mehnat intizomini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Tarmoqda yer-suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi, tirik organizmlar va biologik mehnat vositalaridan foydalaniladi. Bunday sharoitda boshqarishning progressiv shakllarini amlaga oshirish talab qilinadi.

2. Tarmoqda bosh ishlab chiqarish yer resurslari bilan bog'liq. Mamlakatimizda yer bilan bog'liq qonunchilik mavjud. Boshqaruvda bu qonunchilikdan chiqib ketmaslik talab etiladi.

3. Mahsulot ishlab chiqarish biologik davr bilan bog'liq.

4. Ishlab chiqarishning tabiiy-iqlim sharoitiga ham bog'liqligini hisobga olish kerak.

5. Tarmoqda ish vaqti bilan ishlab chiqarish vaqtining mos kelmasligi.

6. Tarmoq va hududlar bo'yicha boshqaruvga rioya etish.

Yuqorida keltirilgan qoidalar va xususiyatlardan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi korxonalarini boshqaruvchilari yakkaboshchilik asosida o'zlari tuzgan boshqaruv tuzilmasi asosida boshqaruvni amalga oshiradilar.

Fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va shu kabi kichik biznes sub'yektlari o'z faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi va yashab ketishi uchun boshqaruvni talab etadi³. Qishloq xo'jaligida menejment amaliy fanlar sirasiga kirib, nazariy fanlardan farqli ravishda doimiy o'zgarimas ravishda bo'lmagan o'tmish, bugun va kelajak haqidagi o'zgarishlarni muttasil hisobga olgan holda o'rganib boradigan fan hisoblanadi. Har

³ Ronald D. Kay, William M. Edwards, Patricia A. Duffy. Farm management. - 6th ed. ISBN 978-0-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p. -p-8.

bir fanni o'rganish chog'ida aynan nimalarni o'rganayotganimizni aniq bilish uchun fan ob'yekti va predmetini bilmog'imiz lozim.

Fan ob'yekti va sub'yektini bilishdan oldin bu tushunchalarni nimani anglatishini qarab chiqsak.

Adabiyotlarda ob'yekt va predmet terminlariga aniq qilib ta'rif berilganligini ko'ramiz. Ob'yekt - muammo vujudga kelgan va izlanish uchun tanlangan jarayon yoki qarash bo'lsa, predmet - ob'yekt chegarasida joylashgan barcha vositalar. Soddaroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, firma miqyosida ob'ekt firma binosi bo'ladigan bo'lsa, predmet bino ichidagi buyumlar hisoblanadi. Shahar miqyosida ob'yekt - shahar bo'ladigan bo'lsa, predmet - shahardagi korxonalar (ofislar) hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida menejmentning predmeti qishloq xo'jaligi korxonalarida amalga oshiriladigan boshqaruv jarayonlarining yig'indisi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, qishloq xo'jaligida menejmentning predmeti ushbu tarmoqqa kiruvchi korxonalarning tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish borasidagi tadbirlarda menejment xizmatining amaliy hosil qiluvchi kuch ekanligini o'rganishdan iborat.

Qishloq xo'jaligida menejment ilmiy o'rganish va tahlil qilishning o'z uslublari mavjud bo'lib, ular hammasi yigindisi bitta uslubiyatga jamlanadi. Uslubiyat - jarayon va qarashlarni o'rganish uslublari hisoblanadi. Uslubiyat asosiy masalani, ya'ni qaysi ilmiy usul bilan u yoki bu tizimning haqiqiy faoliyatiga va uning kelajakdagi rivojiga baho bera olishga yordam beradi.

Uslubiyatni bir necha asosiy yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

Sub'yektiv yo'nalish, bunda xo'jalik yurituvchi sub'yekt bir necha variantlarning ichidan tanlab olinadi;

Empirik yo'nalish, bunda bilim faqat tajriba natijasida olinadi, faqatgina kuzatish asosiy rol o'ynaydi, ma'lumotlar tahlil xam qilinmaydi, o'zaro aloqadorlikda ko'rib ham chikilmaydi;

Pasionalistik yo'nalish, bu yo'nalish ishlab chiqarish va taqsimotni ko'proq ishonchliroq tartibda solishga yordam beradigan qonunlar ochishni ustun qo'yadi;

Dialektik - materialistik yo'nalish, bu yo'nalish ko'proq ilmiy xisoblanadi, chunki bu yo'nalishda ob'yektiv tahlil amalga oshiriladi, xaqiqatda mavjud karashlar va ularning rivojlanishi tavsiflanadi. Dialektik yo'nalishning mohiyati, barcha jarayonlar va qarashlar doimo vujudga keladi, rivojlanadi va yo'qoladi, ya'ni hamma vaqt harakatda bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida menejmentda bir qancha uslublardan foydalaniladi:

Kuzatish uslubi, bu uslub yordamida boshqaruvchi ob'yekt to'g'risidagi barcha ma'lumotlar rejali va ilmiy asosda kuzatilayotgan ob'yektning faoliyatiga aralashmagan holda to'planadi;

Eksperimental tajriba uslubi, bu uslubda amalda qo'llanilish mumkin bo'lgan iqtisodiy jarayonlar dastlab ma'lum bir hududlarda va xo'jaliklarda namunaviy tajribadan o'tkaziladi. Tajriba yakunlari bo'yicha tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, tajriba ishlab chiqarishga joriy qilinadi. Masalan, shirkat xo'jaliklari zarar ko'rib ishlayotgan tumanlarda bu xo'jaliklarni fermer xo'jaliklariga aylantirib borish.

Iqtisodiy matematik modellashtirish, ushbu usul yordamida optimal qarorlar qabul qilish maqsadida iqtisodiy jarayonlarning dinamikasi, bu bo'yicha kerakli grafiklar va chizmalar tayyorlanib olinadi. Ushbu uslubning elektron hisoblash mashinalarida ham dasturlari yaratilgan. Ular jumlasiga, PER (paket ekonomicheskix raschyotov - iqtisodiy hisoblashlar paketi), XA, Excel- Solver, vorl_ru dasturlarini kiritish mumkin.

Sosiologik kuzatuv usuli. Bunda boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida turli anketalar, so'rovlar, suhbatlar, testlar va infratuzilmaviy tahlillar o'tkaziladi.

Integrasion.

Vaziyatli yondoshuv.

Qishloq xo'jaligida menejment quyidagi funksiyalarni o'z ob'yektini o'rganishda joriy qiladi:

- Rejalashtirish;
- Tashkil etish;
- Aloqa funksiyasi;
- Muvofiqlashtirish va tartibga solish;
- Nazorat.

Amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasida O'zbekiston Respublikasida bir necha o'zaro bog'liq darajalardan tashkil topgan davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi yaratildi.

Birinchi daraja - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi.

Ikkinchi daraja - vazirliklar va idoralar, avvalo: Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat mulki qo'mitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Kommunal xizmat ko'rsatish agentligi,

Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, Qurilish va arxitektura bo'yicha qo'mita o'zlarining hududiy bo'linmalari orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilishda ishtirok etishadi.

Uchinchi bo'g'in - mahalliy davlat hokimiyati organlari:

□ viloyat, shahar va tuman hokimliklari (mahalliy ma'muriyat)

viloyat, shahar va tuman halq deputatlari kengashi

□ (mahalliy kengashlar) hududiy boshqarmalar va vazirliklar bo'linmalari.

Viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari mahalliy darajada ijroiya hokimiyati negiziga aylandi va o'tish davrida ijtimoiy barqarorlikni saqlash va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlay oldi.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarini isloh qilish natijasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kuzatilgan muayyan ijobiy o'zgarishlar mavjudligiga qaramay hokimliklar faoliyatida quyidagi salbiy omillar saqlanib kelmoqda:

- bozor iqtisodiyotining samarali faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi ma'muriy boshqaruv usullaridan foydalanish;

- xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, eng avvalo xususiy tadbirkorlar va fermerlar faoliyatiga faol aralashish;

- markaziy va mahalliy hokimiyat organlari orasida qat'iy bo'ysunishning saqlanganligi.

Ushbu omillar yig'indisi ko'p jihatdan hududlar rivojlanishida mavjud bo'lgan salbiy tendensiyalarga asos bo'ladi:

1. Tarkibiy o'zgarishlar sust kechadi va kutilgan natijani bermaydi, bu esa hududlar iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanmaslikni keltirib chiqaradi. Sanoatning mavjud tarkibi hududlarni isloh qilish vazifalariga javob bermaydi hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishiga sust ta'sir ko'rsatadi. Asosiy sanoat-ishlab chiqarish salohiyati Toshkent shahri, Farg'ona, Navoiy, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida jamlangan.

2. Sanoat ishlab chiqarishining hududiy tarkibida 1991-2016 yy.da sanoatning kon qazish sohasi ulushi ko'paydi, qayta ishlash sohasi esa - kamaydi, bu esa hududlar iqtisodiyotining xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilganligidan dalolat beradi. Qazib chiqarishga yo'naltirilgan sohalarining aksariyati (82,9%) Qashqadaryo (20,5%), Navoiy (39,2%) va Toshkent (23,2%) viloyatlarida jamlangan.

Viloyatlarda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sohalarining solishtirma salmog'i yuqori texnologiyalarga asoslangan, raqobatbardosh ishlab chiqarishlar rivojlanmaganligi tufayli pastligicha qolmoqda.

3. Mamlakatimiz va xorijiy sarmoyalarni joylashtirishda nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Davlat kapital qo'yilmalarining aksariyat qismi respublikaning shaharlashgan hududlariga yo'naltirilmoqda. Sarmoyalarning umumiy hajmidan Toshkent shahriga 24,0% ga yaqini va 16,0 %

- Qashqadaryo viloyatiga yo'naltirilgan edi, ayni paytda Sirdaryo viloyatiga -1,5 %, Jizzax viloyatiga

- 2,3 %, Namangan viloyatiga -3,8% sarmoyalar yo'naltirilgan. Xorijiy sarmoyalarning ko'p qismi Toshkent shahriga (41,5%), Qashqadaryo viloyatiga (9,8%), Andijon (9,7%), Navoiy(8,2%), Toshkent (5,9%) va Farg'ona (5,7%) viloyatlariga yo'naltirilgan.

4. Mahalliy byudjetlarni shakllantirishning moliyaviy bazasi darajasi pastligicha qolmoqda. Hududlarning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, dotasiya olayotgan hududlar soni qisqarmayapti.

5. Ko'plab viloyatlar yetarlicha mineral-xom ashyo va yoqilg'i-energetik salohiyatga ega, biroq amalda ulardan yetarli darajada oqilona foydalanilmayapti. Qoraqalpog'iston Respublikasida mineral-xom ashyo resurslarining 65,5 % dan, Qashqadaryo viloyatida - 63,5% dan, Farg'ona viloyatida - 62 % dan Namangan va Toshkent viloyatlarida - 54 % dan ortig'idan, Surxandaryo va Navoiy viloyatlarida - 50 % dan foydalanilmayapti.

6. Barcha hududlarda ham qishloq xo'jaligi salohiyatidan unumli foydalanilmayapti. Barcha viloyatlarda qishloq xo'jaligi rentabelligi pasayib bormoqda; qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorva hamda parrandalarning mahsuldorligi kamayib bormoqda. Bu esa sug'oriladigan yerlar hosildorligi va meliorativ holatining yomonlashuvi, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi natijasida ro'y bermoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligining pasayishi mehnat unumdorligining hamda qishloq joylarida aholi jon boshiga nisbatan daromadning pasayishini keltirib chiqaradi. Barcha viloyatlarda ham fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga va bu orqali mulkdorlar sinfini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmagan.

7. Hududlararo iqtisodiy integrasiya deyarli rivojlanmagan; resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan birgalikda foydalanish, ekologik tanglikni yumshatish, hududlararo ijtimoiy- iqtisodiy muammolarni hal etish bo'yicha qo'shma loyihalar va shartnomalar mavjud emas.

8. Respublika va mahaliy hokimiyat organlari tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid samarali mexanizmlar shakllantirilmagan. Prognozlar va investision dasturlarni tuzishda hal qiluvchi rol sohaviy yondashuvga va idoraviy manfaatlarga qaratiladi. Soha va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda alohida hududlarning o'ziga xos xususiyatlari to'liq e'tiborga olinmaydi. Jumladan, Namangan va Xorazm viloyatlari bo'yicha avval ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan dasturlar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha imtiyozli sharoitlarni yaratish dasturi kutilgan natijalarni bermadi.

9. Hududlar rivojlanishini markazlashgan holda tartibga solish darajasi yuqoriligicha qolmoqda, bu esa Mahalliy Hokimiyat organlari (MHO) ga to'liq faollik ko'rsatish, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish imkonini bermaydi. O'zbekistonda ma'muriy islohotlar boshlangan bo'lib, ular quyidagilarga yo'naltirilgan:

- davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, sobiq ma'muriy - buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan elementlarni va markazlashgan boshqaruv shakllarini bartaraf etish, boshqaruv tarkibi va tizimini tubdan o'zgartirish;

- taqsimlash tizimini tugallash va moddiy resurslarni realizasiya qilishning bozor mexanizmlariga o'tish;

- jamiyat va davlat o'zaro hamkorligining yangi mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi oshkoraligi va ochiqligini ta'minlash.

Mavjud MHO tarkibi iyerarxik tusga ega bo'lib, viloyat, shahar, tumandan tashkil topadi. Hokimliklar tarkibi Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra belgilanadigan namunaviy (standart) tuzilmalarga asoslangan. Unga ko'ra viloyat, tuman va hokozolar hajmiga ko'ra tasniflanadi hamda qarorning ilovasida har bir guruh bo'yicha namunaviy tuzilmalar keltiriladi. Hokimiyatning hozir amal qiluvchi tarkibi va shtati O'zR VM ning 2004 yil 5 yanvardagi "Davlat boshqaruvi hududiy organlari tarkibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra belgilangan. Ushbu qarorga ko'ra viloyat hokimligining tashkiliy tuzilmasi quyidagi bo'linmalardan tashkil topadi:

- Axborot-tahlil guruhi (ATG), 5-6 mutaxassisdan iborat, tashkiliy-nazorat guruhi (TNG), 3-4 mutaxassisdan iborat, huquq-tartibot organlari faoliyati, harbiy majburiyat va favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha guruh - 3-4 mutaxassisdan iborat, yurist va voyaga yetmagan yoshlar ishlari bo'yicha komissiyaning mas'ul kotibi (1 nafardan mutaxassis). Ushbu bo'linmalarining barchasi bevosita viloyat hokimiga bo'ysunadi;

- Kapital qurilish, kommunikasiyalar, kommunal xo'jalik va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha kotibiyat (QKKXKMK), 4-5 mutaxassisdan iborat, unga hokimning birinchi o'rinbosari rahbarlik qiladi;

- Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha kotibiyat (QSXMK), 3-4 mutaxassisdan iborat, unga hokim o'rinbosari rahbarlik qiladi;

- Iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish masalalari bo'yicha kotibiyat (IITMK) (iqtisodiyot, ma'orif, sog'likni saqlash, madaniyat), 3-4 mutaxassisdan iborat, unga hokim o'rinbosari rahbarlik qiladi;

- Xotin-qizlar ishlari bo'yicha kotibiyat, 2 mutaxassisdan iborat bo'lib, unga hokim o'rinbosari

- viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi rahbarlik qiladi;

- Qator hokimliklarda jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha kotibiyat tashkil etilmoqda, unda 1 nafar mutaxassis ishlaydi va u hokim o'rinbosariga bo'ysunadi.

Sanab o'tilgan bo'linmalar bilan bir qatorda hokimlik qoshida viloyat miqyosida markaziy vazirliklar va idoralarning bo'linmalari tashkil etilgan.

- Iqtisodiy sohada - iqtisodiyot bosh boshqarmasi, moliya boshqarmasi, soliq boshqarmasi, markaziy bankning bosh boshqarmasi, mehnat va aholini muhofaza qilish bo'yicha boshqarmasi, davlat mulk qo'mitasining hududiy boshqarmasi, tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi, monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlash hududiy boshqarmasi, iqtisodiy nochor korxonalarini boshqarish boshqarmasi;

- Ijtimoiy sohada - sog'liqni saqlash boshqarmasi, xalq ta'limi boshqarmasi, o'rta mahsus va kasb-hunar ta'limi boshqarmasi, madaniyat ishlari boshqarmasi, viloyat kasaba uyushmalari federasiyasi, sport va jismoniy tarbiya ishlari qo'mitasi;

- Qishloq xo'jaligida - qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi, yer resurslari boshqarmasi, "Qishloqxo'jalikimyo" AJ ning hududiy bo'limi, fermer va dehqon xo'jaliklarining viloyat birlashmasi, viloyatning ochiq MTP aksionerlik jamiyati, "Paxtasanoatsotish", "Donmahsulot" OAJ viloyat bo'linmalari, o'rmon xo'jaligi boshqarmasi, tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi;

- Qurilish va kommunikasiyalarda - viloyat injiniring kompaniyasi, "Gazta'minot" korxonasi, kommunal xo'jalik viloyat birlashmasi, "Issiqlik manbai" kompaniyasining viloyat boshqarmasi.

Shu tariqa, O'zbekistondagi mavjud MHO tizimi viloyat va tuman boshqarmalarining hokimlik va

mavjud vazirlikka ikkiyoqlama bo'ysunishi bilan ajralib turadi. Viloyat miqyosida xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha davlat tashkilotlari (maktablar va kasalxonalar kabi) hokimlik qoshida tashkil etilgan.

Hokimlik farmonlar va qarorlarga muvofiq tegishli davlat dasturlarining ijrosi uchun mas'ul bo'lgan markaziy organlarning tegishli hududiy bo'linmalari orqali muassasalar va tashkilotlarni boshqaradi. Ushbu mas'uliyat hokim o'rinbosarlari orasida taqsimlangan bo'lib, ularning har biri sektor ishini yoki xizmatlar majmuasini muvofiqlashtiradi. Sektorlar yoki boshqarmalar boshlig'i hokim tomonidan tegishli vazirlik bilan kelishilgan holda tayinlanadi hamda HDK tomonidan tasdiqlanadi.

1.4. Menejmentning ob'yekti va sub'yekti ularning o'zaro aloqadorligi.

Kundalik hayotimizda menejment va menejer so'zlari juda ko'p qo'llaniladi. Dastlab menejment fan sifatida AQShda paydo buladi. Menejment — bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan boshqaruv — bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Menejment fani bu — boshqaruvchiga tanlovni to'g'ri amalga oshirishni va oqil qarorni qabul qilishni o'rgatuvchi fandir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda samarali ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Shundan kelib chiqib, menejment quyidagilarni o'rganadi:

- *boshqarish nazariyasi va amaliyoti;*
- *boshqarish ob'yekti va sub'yekti;*
- *boshqarish prinsipi va usullari;*
- *boshqarish madaniyati;*
- *menejer va uningfazilatlarini;*
- *menejer reytingi;*
- *boshqarishda kirishuvchanlik va qaror qabul qilishi;*
- *boshqarish funksiyalari;*
- *xodimlarni boshqarish;*
- *ishlab chiqarishni boshqarish;*
- *samaradorlikni boshqarish;*
- *o'z-o'zini boshqarish;*
- *hududiy boshqarish va hokazolar.*

Fanning predmeti boshqaruv jarayonidagi kishilarning munosabatlarini, boshqaruv qonunlari, tashkiliy tarkibi, texnika texnologiyasini o'rganishdan iborat.

Menejment ob'yekti haqida so'z yuritganda, eng avvalo, ob'yekt so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Shu ma'noda ob'yekt - bu:

- bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqyelik, moddiy dunyo, mavjudot;
- Kishi faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan hodisa, narsa, shaxs;
- Xo'jalik yoki mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan korxonalar, qurilish, ayrim uchastka va shu kabilar.

Demak, ob'yekt tushunchasi mikro voqyelikdan (kishi va uning faoliyatidan) tortib, to makro voqyelik (moddiy dunyo, jamiyat) darajasigacha bo'lgan ma'noni o'z ichiga oladi. Masalan, «haydovchi o'z mashinasini boshqara ololmaganligi sababli u yo'ldan chiqib ketgan». Bu yerda boshqaruv ob'yekti bo'lib mashina hisoblanadi.

Yoki, «u kishi o'zini juda yaxshi boshqara oladi». Bu yerda boshqaruv ob'yekti bo'lib, kishi, shaxs hisoblanadi. Futbol komandasi yoki suv kemasi harakatini boshqarish, tuman, shahar, viloyat, mamlakatni boshqarish va hokazolar menejmentning yoki boshqarishning ob'yektlaridir.

Biror narsaga o'zining ta'sirini o'tkazuvchi, yoki uning qatnashuvi ta'siridagi qandaydir sabab yoki omillarni sub'yekt deb ataymiz. Masalan boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejmentning sub'yekti, ya'ni boshqaruv organlari yoki menejerlar - boshqaruvchilar bo'lib hisoblanadi. Menejment ob'yekti va sub'yektlarini 1.1-jadvalda keltirilganidek tavsiflash mumkin.

Menejment ob'yekti va sub'yekti

№	Menejment	
	Ob'yekti (boshqari-luvchi hodisa, voqelik)	Sub'yekti (boshqaruv organi, rahbarlik)
1. Makrodaraj ada		
1	Mamlakat (Respublika)	<ul style="list-style-type: none"> • Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlis) • Ijro etuvchi hokimiyat (O'zR Vazirlar Mahkamasi) • Sud hokimiyati
2	Viloyat	<ul style="list-style-type: none"> • QQR Jokargi kengashi va viloyat deputatlari • QQR Vazirlar kengashi, viloyatlar hokimiyatlari • QQR Oliy sudi, viloyatlar sudlari
3	Tuman (shahar)	<ul style="list-style-type: none"> • Tuman (shahar) xalq deputatlari • Tuman (shahar) lar hokimliklari • Tuman (shahar) sudlari
2. Megodarajada		
4	Konsern (ko'p tarmoqli korporasiya)	• Ko'mitalar va ularning raislari
5	Sektor (tarmoq)	• Vazirliklar va vazirlar
3. Mikrodarajada		
6	Korxonalar (firma), korporasiya	• Jamoa kengashi va raislar, prezident
7	Xodimlar	• Korxonalar (firma) rahbarlari, bo'g'in boshliqlari
8	Ishlab chiqarish	• Korxonalar (firma) rahbarlari, bo'g'in boshliqlari
9	Samaradorlik	• Korxonalar (firma) rahbarlari, bo'g'in boshliqlari
10.	O'z-o'zini boshqarish	• Fuqaro yig'ini, rais (oqsoqol)lar

SI lunday qilib har qanday hodisa yo ci jarayon negizi boshqariladigan ob'yekt va boshqariluvchi sub'yekt tizimlaridan tashkil topadi. Menejment ob'yektlari: Mamlakat, viloyat, tuman, konsern, korxonalar (firma), korporasiya, xodimlar, ishlab chiqarish va boshqalar. Menejment sub'yektlari esa ularni boshqaruvchilari hisoblanadi.

Har bir ishchining ijodiy faolligi, sodiqligi va malakasini oshirish tufayli kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni boshqarish va texnika-texnologiya bazasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish yo'li bilan firma faoliyatida daromad olish yoki foyda ko'rishni ta'minlash menejment fanining tub maqsadini bildiradi. Shuningdek, firmani muvaffaqiyatli boshqarish, biznesda ichki va tashqi muhit ta'siriga xos rahbarlikni olib borish, tashkilotdagi kelishmovchilik masalalarini hal etish ham menejment fanining ana shunday maqsadlaridandir.

Moddiy va inson resurslariga ega bo'lgan holda, iste'molchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, xizmat ko'rsatish va tovarlar ishlab chiqarishni tashkil etish hamda bozor muhitida korxonalar faoliyatining rentabelligini va uning barqaror holatini ta'minlash menejmentning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Menejment vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishlab chiqarishni avtomatlashuvini ta'minlash va yuqori malakali ishchilardan foydalanishga o'tish;
- yaxshi mehnat sharoitlarini yaratish va yuqori ish haqini belgilash yo'li bilan firma xodimlari ishini rag'batlantirish
- firmaning samarali faoliyati uchun doimiy nazorat o'rnatish, firmaning barcha bo'limlaridagi ishlarni muvofiqlashtirish;
- doimo yangi bozorlarni izlash va o'zlashtirish;
- firmalarni rivojlantirishda aniq maqsadlarni belgilash;
- maqsadlar ustivorligini, ularning ketma-ketligi va qabul qilingan qarorlar izchilligini aniqlash;
- firmalarni rivojlantirishdagi strategiyani - xo'jalik yuritish masalalari va ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish;
- turli vaqt davrlarida belgilangan muammolar yechimini hal etish uchun chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- zarur resurslar va ular bilan ta'minlash manbalarini aniqlash;
- belgilangan vazifalarni bajarish borasida nazorat o'rnatish.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va belgilangan maqsadlarning qanchalik darajada muvaffaqiyatga erishganligini bozor muhitining o'zi baholaydi. Ishlab chiqarish masshtabining kengayishi, ta'minotda resurslar hajmining ortib borishi bilan boshqaruv vazifalari ham murakkablashib boradi.

Menejment fani voqelikni bilishga bag'ishlangan umumfalsafiy usullarni qo'llaydi. Eng avvalo boshqaruvchi ob'yektini aks ettiruvchi, uni talqin etishga yordam beruvchi ma'lumotlar jamlab baholanadi yoki ma'lumotlar mikro-, mego- va makrodarajadagi voqyelikka oid bo'lishi mumkin. Bu boshqaruvni tafakkur etishdagi empirik bosqich hisoblanadi (1.2-jadval).

1.2-jadval

Menejment fanining tahlil usullari

№	Tahlil usullari	Mazmuni
1.	Tizimli yondashuv	Boshqariluvchi ob'yekt yaxlit tizim tarzida olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin: <ul style="list-style-type: none"> • tizimli-kompleks yondashuv; • tizimli-funksional yondashuv; • tizimli-tarkibiy yondashuv; • tizimli-kommunikasion yondashuv
2.	Kompleksli yondashuv	Boshqariluvchi ob'yekt boshqa ob'ektlar bilan o'zaro bog'lanishda va aloqador-likda qaraladi
3.	Tarkibiy yondashuv	Boshqariluvchi ob'yekt tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi.
4.	Vaziyatli yondashuv	Boshqariluvchi ob'yektning muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubi qo'llaniladi.
5.	Integrasion yondashuv	Boshqariluvchi ob'yekt yuqoridagi usullar (vaziyatli, kompleksli, tarkibiy yondashuvlar)ni birgalikda qo'llash yordamida boshqariladi.
6.	Modellashtirish usuli	Boshqariluvchi ob'yekt boshqarish bo'yicha turli chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi.
7.	Iqtisodiy-matematik yondashuv	Maqbul qaror qabul qilish maqsadida matematik usulblar va hisoblash mashinalarini keng miqyosda qo'llash.
8.	Kuzatish usuli	Boshqariluvchi ob'yekt to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash.
9.	Tajriba usuli	Boshqarish jarayonida boshqariluvchi ob'ektga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullarni qo'llash.
10.	Ijtimoiy (sosiologik) kuzatuv usuli	Boshqarish maqsadida turli anketali so'rovlar, suxbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillarni o'tkazish.

Menejment fani boshqarish to'g'risidagi bilimlar majmuidir. U ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir.

Qonun - bu ob'yektiv borliqda turli hodisalar kishi ongidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud bo'lgan zaruriy bog'lanish, munosabat. Masalan, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari, muvozanat qonunlari va h.k.

Qonun - bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo'lgan ijtimoiy huquqiy me'yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida. Masalan, Konstitutsiya O'zbekistonning asosiy qonunidir. To'qqiz yillik majburiy ta'lim haqida qonun va h.k.

Qonun - bu bajarilishi shart, majburiy bo'lgan me'yor, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq va shu kabilar, ya'ni jamiyatda, ijtimoiy guruh va shu kabilarda qabul qilingan odat tusiga kirgan qoida, rasm, odat.

Tamoyil - mayl, moyillik, tendensiya.

"Prinsip" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, asos, dastlabki, ya'ni xatti-harakat yoki faoliyatning asosiy qoidasi, rahbar g'oya ma'nolarini bildiradi. Prinsiplarni menejment fani va amaliyotining poydevori deyish mumkin.

1.5. Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.

Menejmentning mazmunini iqtisodiyotni boshqarishning, boshqarish tizimlari va uni tuzishning tashkiliy shakllari, xo'jalik mexanizmi va boshqaruv uslublari, boshqaruv texnika va texnologiyasining nazariy va

metodologik asoslarini o'rganish tashkil etadi. Menejment boshqaruv faoliyatining umumiy qonuniyatlari va tamoyillari, boshqaruv tizimiga ta'sir usullarini shakllantiradi, boshqaruv apparatining aniq vaziyatlardagi xarakatlari va o'zini tutish xollarini umumlashtiradi. Iqtisodiyotni boshqarishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganadi. Boshqaruv nazariyasi boshqaruv faoliyatining qirralarini butun bir majmua ko'rinishida, nazariy taxlil va mantiqiy uslub asosida boshqarishning asosiy qonuniyatlari va usullarini ajratib o'rganadi.

Menejmentning amaliy tomonlari quyidagi aniq vazifalarni hal etishga: iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishiga, foyda olishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi ijtimoiy ximoyasini kuchaytirishga, kishilar ma'naviy darajalarini o'stirish va boshqalarga qaratilgandir.

Menejmentning bu amaliy qismi boshqaruv tamoyillarini o'zini emas, balki ularni boshqaruv amaliyotida qo'llash qobiliyati, ya'ni ulardan aniq ko'rinishlaridan aniq vaziyatda, foydalana olish qobiliyatini o'rganadi. Uning boshqarish nazariyasidan farqi u iqtisodiyotni boshqarish amaliyotida qonuniyatlar, tamoyillari va uslublaridan foydalanish namunalarini ishlab chiqarishdadir.

Menejmentning asosiy vazifasi jamiyat rivojlanishining ob'yektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va iqtisodiyotni boshqarish amaliyotini umumlashtirish asosida iqtisodiyotni samarali boshqarish uchun zarur bir maqsadga yo'naltirilgan xarakatlar tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Menejment mazkur mutaxassislikka o'tilayotgan barcha fanlar bilan aloqador. Yuqori malakali menejer bo'lish uchun Oliy ta'limda o'tiladigan barcha fanlardan xabardor bo'lish lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Qishloq xo'jaligining Respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini tushuntiring.
2. Menejment atamasining ma'nosi nima?
3. Menejment ob'yekti va sub'yekti o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
4. Qishloq xo'jaligida menejment fanining mohiyati va mazmuni qanday tushunasiz?
5. Menejmentni o'rganishdan maqsad nima deb hisoblaysiz?
6. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi qanday?
7. Qishloq xo'jaligida menejment fanining predmetini tushuntiring.

GLOSSARIY

(Mavzu: Qishloq xo'jaligida menejment fanining predmeti, maqsadi, vazifasi va tahlil usullari)

Qishloq xo'jaligi / Сельское хозяйство / Agriculture - asosiy maqsadiga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladigan, ishlar, xizmatlar bajariladigan, ular talabni qondirish maqsadida taqsimlanadigan, sotiladigan tarmoq.

Menejment / Менеджмент / Management - boshqarishni idora qilish, tashkil etish, rahbarlik qilish ma'nolarini anglatadi.

«Menejment» so'zining Oksford lug'atida ma'nosi / Значение слова менеджмента на Оксфордском словаре / Meaning of Management in Oxford dictionary - odamlar bilan muomala qilish usuli, tarzi; hokimiyat va boshqaruv san'ati; ishbilarmonlikning o'ziga xos turi; ma'muriy vazifa.

Menejment / Менеджмент / Management - bu professional faoliyatning mustaqil ko'rinishi bo'lib, bozor sharoitida firmaning ixtiyoriy xo'jalik faoliyati natijasida moddiy va mehnat resurslardan unumli foydalanib mo'ljallangan maqsadga erishishdir.

Boshqarish so'zi / слово Управление / word management - keng ma'noda ishlatiladi, masalan: davlatni boshqarish, mashinani boshqarish, biron bir biologik jarayonni boshqarish va hokazo. Iqtisodiyotni boshqarish / Управление экономики / Managing Economics - bu muayyan doirada tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va firmalarni boshqarish tushuniladiki, bunda mehnat jamoasi, personal (xodimlar) va ishchilarni boshqarish o'ziga xos muhimlikni bildiradi.

Xarajat / Затрата / Expense - bu mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tovarni sotish va xodimlarga to'lash uchun sarflanadigan mablag'lardir.

Naf / Прибыль / Profit - bu mahsulot yoki xizmatlarning iste'molchilarga qanchalik darajada ijobiy natija